
Toshloqda «Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab» tanlovining tuman bosqichi o‘tkazildi

Bugun mamlakatimiz bo‘ylab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining tuman bosqichlari bo‘lib o‘tmoqda.

Toshloq tumanidagi 2-umumta‘lim maktabida tumandagi 48 ta maktabdan saralangan 240 nafar o‘g‘il-qiz xorijiy tillar bo‘yicha o‘z bilim va mahoratini sinovdan o‘tkazdi.

Tanlovda o‘quvchilar sinf xonalariga kirishdi. Testlar solingan quti ochilib, uning haqqoniyligi o‘quvchilarga ko‘rsatildi va ruxsat berildi.

Tanlov nizomiga muvofiq eng yuqori ball to‘plagan maktablar ballar ketma-ketligiga ko‘ra 1, 2, 3-o‘rinlarni egallagan maktablar sifatida belgilanadi va tanlov g‘oliblariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrin ya‘ni tuman bosqichida 1-o‘rin uchun — 100 million so‘m, 2-o‘rin uchun — 75 million so‘m, 3-o‘rin uchun — 50 million so‘m bilan taqdirlanadi.

2024-02-26 15:20:25